

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359
	ADABIYOTSHUNOSLIK
U.B.Matmurotova	
Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374
	TILSHUNOSLIK
A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO‘K: 327.5

TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATIGA QARSHI JADIDCHILIK HARAKATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА ПРОТИВ КОЛОНИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ТУРКЕСТАНЕ****SPECIFIC ASPECTS OF THE JADIDISM MOVEMENT AGAINST THE COLONIAL POLICY IN TURKESTAN****Mansurov Ulug‘bek Jumayevich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakatini yuzaga kelishi va uning siyosiy hayotga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, jadidchilik harakatining asosiy ilmiy xususiyatlari va ular ilgari surgan asosiy g'oyalarning tub mazmun-mohiyati asoslangan. Shu bilan birga Turkiston aholisi orasidagi yangi fikrli ziyolilarning mustamlaka zulmiga qarshi harakatlarning asosiy mohiyati falsafiy omillari asosida ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется возникновение джадидистского движения и его влияние на политическую жизнь. Также обоснованы основные научные особенности движения джадидизм и фундаментальная суть основных идей, которые они выдвигают. При этом раскрывается основная суть действий новообразованной интеллигенции среди населения Туркестана против колониального гнета, исходя из их философских факторов.

Abstract

This article analyzes the emergence of the Jadidist movement and its impact on political life. Also, the main scientific features of the Jadidism movement and the fundamental essence of the main ideas they put forward are based. At the same time, the main essence of the actions of new-minded intellectuals among the population of Turkestan against colonial oppression is revealed based on their philosophical factors.

Kalit so'zlar: milliy-ozodlik harakati, jadidchilik harakati, feodalizm qoloqligi, diniy fanatizm, rus mustamlakachilari, ma'rifatli fuqorolar.

Ключевые слова: национально-освободительное движение, джадидское движение, феодальная отсталость, религиозный фанатизм, русские колонизаторы, просвещенные граждане.

Key words: national-liberation movement, Jadidism movement, feudalism backwardness, religious fanaticism, Russian colonialists, enlightened citizens.

KIRISH

Adabiyotlar tahlillariga ko'ra, jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy shart-sharoit bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Xususan, chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan Turkiston hududida milliy-ozodlik harakati o'zining jadidlar nomi bilan bog'liq ravishda tarix sahnasiga olib chiqilgan. Milliy mustamlaka zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulish mumkinligini asta-sekinlik bilan anglash jarayonini his qila boshlashganligini aytish zarur. Jumladan, jadidchilik harakati, avvalo, siyosiy oqim sifatida vujudga kelganligini ta'kidlash lozim. Shu boisdan jadidlarning faoliyati Turkistonning barcha hududlarida namoyon bo'la boshlagan. Shuningdek, Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik ta'limotining mazmun-mohiyati milliy rivojlanish falsafasini rivojlantirishga qaratilganligini alohida e'tirof etish mumkin. Eng avvalo bunday rivojlanish, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan xalqni birlashtirish va bu orqali ma'rifatli fuqorolarga ega bo'lgan jamiyatni shakllantirish zarur bo'lgan. Bu harakat o'z davrining eng ilg'or vakillarining sa'y-harakatlarida namoyon bo'lganligini ta'kidlash lozim. Shu bois jadid ziyolilari tomonidan o'sha davrdagi jamiyatni ta'lim berish, ijodkorlik, darsliklar, she'r va publitsistik maqolalari bilan xalqning falsafiy ongini oshirishga harakat qildilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

TARIX

Rus hukumati mahalliy xalq va uning vakillari uchun har qanday mustaqil harakat qilish eshiklarini butunlay yopib tashlagan edi. Turkiston viloyatining so'nggi general gubernatori general A.N.Kuropatkin (1848-1925) 1917-yili o'z xotiranomasida yozganidek, «so'nggi 50 yil davomida biz (ruslar) mahalliy xalqlarni taraqqiyot, maktab va rus hayotidan uzoqroq tutdik» [A.N.Kuropatkina. 1992. – C. 40]. Viloyatlardagi rus ma'muriyatlari «g'ayri rus» bo'lgan mahalliy millatlarga oid deyarli barcha narsalarni inkor qilish siyosatini olib bordi. Shu siyosat doirasida ular mahalliy tillarda gazetalar, hatto ular davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi dastur asosida bo'lsa ham nashr qilinishiga ijozat bermadi. I.Gasprinskiy «Ziyo Kafkaziya» gazetasida 1879-yili chop qilingan, hozirgacha aniqlangan birinchi maqolasida har bir millat o'z muammolarini muhokama qilish imkoniyatini beruvchi milliy matbuot organiga yega bo'lishi kerakligi haqida yozgan yedi. Gasprinskiy matbuotni «millatning tili» va u orqaligina millat o'zini himoya qila olishi mumkinligiga urg'u beradi va «qisqasini aytganda o'z matbuoti va adabiyotiga yega bo'lmagan millat ko'r va soqov odamga o'xshaydi», [Ismoil Gasprinskiy. 1879] deb yozadi.

Tahlillarga binoan, o'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'lgan. X.Majidiy fikricha: «XIX asrning 70-80 yillarida esa mustamlakachilarga qarshi milliy ozodlik harakatlari Turkiston o'lkasining deyarli barcha joylarida kuchayib ketdi. Bu haqda maxfiy maslahatchi Girs ham o'z ma'lumotlarida to'xtalib o'tib, «xalqda ruslarga qarshi kurashish befoyda», degan to'shuncha paydo bo'lgan, - deya ta'kidlab o'tadi» [Majidiy X. 1992. – B.19]. Zero, biz keyingi yillarda bo'lib bir qancha milliy ozodlik harakatlaridan xalqda bunday xulosa paydo bo'lmaganligini ko'ramiz. Shuningdek, milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga yana bir sabab, mustamlakachilar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy zulm ekanligini ta'kidlash zarur. Xususan, Rossiya Turkistonni bosib olgach, o'zining iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishga va o'lkani xom-ashyo bazasiga aylantirishga kirishgan. «Qishloq xo'jaligidagi amalga oshirilgan siyosat, o'lkada sanoat ishlab chiqarishning shakllantirilishi to'raligicha rus podshosi manfaatlarini uchun ishlay boshladi. Mahalliy xalqlarning barcha insoniy huquqlari poymol etilib, ularga faqatgina arzon ishchi kuchi bo'lgan qullar kabi muomala qilindi» [Majidiy X. 1992. – B.37].

Turkiston o'lkasida sudxo'rlikning nihoyatda, kuchayib avj olishi ham asosan oddiy dehqonlarni katta-katta qarzlarga bostirib, o'z yeri va erkidan mahrum bo'lishlariga olib keldi. «Ruslar kelishi bilan boshlangan ocharchiliklar, qashshoqliklar, turli kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, ruslar kelishi bilan tengma teng o'lkada keng tarqalgan o'g'rilik, talonchilik, yulg'ichlik oddiy xalqning boshiga og'ir savdolarni soldi». Bizning fikrimizcha, mustamlakachi ma'murlarni xalqning iqtisodiy chiqishlaridan ko'ra ko'proq siyosiy chiqishlar tashvishga soldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muhammad Aziz Marg'iloniy fikricha: «Bunday chiqishlar mahalliy ma'muriyat - volost boshqaruvchilari mingboshilar, oqsoqollar va xalq sudyalari - qozilar saylovlarida tobora ochiq-oydin ko'rina boshladi» [Muhammad Aziz Marg'iloniy. 1999. – B. 184.]. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, rus mustamlakachilari qo'zg'olonchilarni jazolashda o'zlariga yoqmagan mahalliy ziyolilarni, xalqni ko'tarishga qodir ma'rifatparvar va millatparvarlarni ham qatog'on qildi. Jumladan, xalqimiz har tomonlama mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan bo'lsa-da, biroq o'zining izzati, erki, qadr-qimmatini toptalayotganligiga indamay qarab turmadi va rus mustamlakachilariga qarshi ko'plab marotaba erk va istiqloq uchun kurashlar olib borgan.

Darhaqiqat, Turkiston xalqining ahvoli keskin darajada yanada yomonlashib borgan. O'lkada eski feodal boshqaruv bilan barobar eksplutatsiyaning yangi tartib usullari joriy etilgan. Qolaversa, G.T.Maxmudova fikricha: «ijtimoiy taraqqiyot zinopoyasining yuqoriroq pog'onasida turgan Rossiya Turkiston xalqlari hayotiga yangilik olib kirmasligi ham mumkin emas edi. Feodalizm qoloqligi va diniy fanatizm hukmron bo'lgan o'lkada joriy etilayotgan boshqaruv va ta'lim sistemasi bu o'lka ilg'or namoyondalarining diqqat e'tiborini tortishi tabiiy edi» [Maxmudova G.T. 1992. – B. 16].

Turkiston o'lkasidagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar, tadqiq etilgan manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so'ng, eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'sirida vujudga kelgan. Darhaqiqat, podsho ma'murlari mahalliy maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to'siq deb

qaradilar. X.Majidiy fikricha: «Shu sababli eski maktablarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko'rilmasdi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi» [Majidiy X. 1992. – B. 16]. Qolaversa, Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma'murlari o'z mavqelarini mustahkamlash uchun mahalliy xalqning ayrim an'analaridan, urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, mahalliy xalq o'rtasida obro'-e'tibor qozongan shaxslardan, ruhoniylardan foydalangan. Shu jihatdan olib qaraganda, mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushlab turish uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Muhammad Aziz Marg'iloniy yozishicha: «Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar» [Muhammad Aziz Marg'iloniy. 1999. – B. 73]. Bu esa o'sha davrdagi Turkiston xalqlarining ahvolini yanada og'ir darajaga tushib qolishiga sabab bo'lganligini xulosa qilish mumkin.

Rus hukumati mahalliy xalq va uning vakillari uchun har qanday mustaqil harakat qilish eshiklarini butunlay yopib tashlagan edi. Turkiston viloyatining so'nggi general gubernatori general A.N.Kuropatkin (1848-1925) 1917-yili o'z xotiranomasida yozganidek, «so'nggi 50 yil davomida biz (ruslar) mahalliy xalqlarni taraqqiyot, maktab va rus hayotidan uzoqroq tutdik» [Kuropatkin. 1992. – S.40]. Shu siyosat doirasida ular mahalliy tillarda gazetalar, hatto ular davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi dastur asosida bo'lsa ham nashr qilinishiga ijozat bermadi. I.Gasprinskiy «Ziyo Kafkaziya» gazetasida 1879-yili chop qilingan, hozirgacha aniqlangan birinchi maqolasida har bir millat o'z muammolarini muhokama qilish imkoniyatini beruvchi milliy matbuot organiga yega bo'lishi kerakligi haqida yozgan yedi.

Tahlillarga binoan, o'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'lgan. X.Majidiy fikricha: «XIX asrning 70-80 yillarida esa mustamlakachilarga qarshi milliy ozodlik harakatlari Turkiston o'lkasining deyarli barcha joylarida kuchayib ketdi. Bu hakda maxfiy maslaxatchi Girs ham o'z ma'lumotlarida to'xtalib o'tib, «xalqda ruslarga qarshi kurashish befoyda», degan to'shuncha paydo bo'lgan, - deya ta'kidlab o'tadi» [Majidiy X. 1992. – B.19]. Zero, biz keyingi yillarda bo'lib bir kancha milliy ozodlik harakatlaridan xalqda bunday xulosa paydo bo'lmaganligini ko'ramiz. Shuningdek, milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga yana bir sabab, mustamlakachilar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy zulm ekanligini ta'kidlash zarur. Muhammad Aziz Marg'iloniy fikricha: «Bunday chiqishlar mahalliy ma'muriyat - volost boshqaruvchilari mingboshilar, oqsoqollar va xalq sudyalari - qozilar saylovlarida tobora ochiq-oydin ko'rinsa boshladi» [Muhammad Aziz Marg'iloniy. 1999. – B. 184]. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, rus mustamlakachilari qo'zg'olonchilarni jazolashda o'zlariga yokmagan mahalliy ziyolilarni, xalqni ko'tarishga qodir ma'rifatparvar va millatparvarlarni ham qatog'on qildi.

Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlash zarur. Sharqdagi inqiloblar va o'lkaga u yerlardan kirib kelgan turli xil g'oyaviy oqimlar bu yerlardagi muxolif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lganligini asoslash mumkin. Xususan, Abdurauf Fitrat xotin - qizlarimizning o'qimishli bo'lishi, kelajak avlodlarimizni nodon va johil, tarbiyasiz bo'lmashlari bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishlari uchun zarurdir, deb ta'kidlagan. Avloniy tarbiyani «oiladagi mushkul vazifa go'dak tavalludidan so'nggi er-xotin bo'yniga tushadigan farzand tarbiyasidir», – deb e'tirof etgan. Bizning fikrimizcha, jadidlar ma'rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishda bir qator Sharq va G'arb ilg'or tajribalaridan ham foydalangan. Jumladan, G'arb va Sharq insonshunosligini payvand qilishga intilgan jadid mutafakkirlari ijobiy qahramonlariga ziyoli shaxs deb berilgan ta'rifida komillikning «ovrupocha andoza»si ko'zga tashlanadi. Turkistonning ijtimoiy ahvoli og'irligi natijasida o'lka bo'ylab jadidlarning milliy-ozodlik harakati, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy maqsadlari kun tartibiga asosiy masala sifatida qo'yildi. Bu Vatan va millat ozodligi yo'lidagi kurashga asos bo'ldi. Ilmimizni I. Rahmatullayev fikricha: «Turkiston iqtisodiy va ijtimoiy foydasig'a ishlatmak va

TARIX

natijalik ishlar maydonga qo‘ymoq uchun shu mamlakatning ahvoli va ruhiga muvofiq harakat etish qancha kerak bo‘lsa, maorif ishlarining jiddiy, Turkiston boshliq-rahbarlarga muhtojmiz». Bundan ko‘rinadiki, kelajakda mamlakat taraqqiyoti ham, ozodligi ham yoshlarning ilmiga bog‘liq.

XX asr boshlarida butun Rossiya imperiyasida talabalar harakati keng yoyilgani kabi, musulmon madrasalarida ham talabalarning siyosiy faolligi bir muncha ortganligini ta’kidlash lozim. Jumladan, A. Boboxonov yozishicha: «Farg‘onada ham dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar tashkil topdi. 1908 yilga kelib esa, Qo‘qon shahrining bir guruh ilg‘or fikrli madrasa talabalari tomonidan «Shamsinur» jamiyati tuziladi». Ushbu jamiyat a‘zolari xalq ommasini ilmi, ma’rifatli qilishni, madrasalarda aniq fanlar o‘qitilishini joriy qilinishini birinchi galdagi vazifalardan deb bildilar. Shuningdek, ushbu jamiyat yig‘ilishlarida o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarni ham muhokama qilishgan. «Shamsinur» jamiyati faoliyatida jadidlarning sezilarli ta’siri bo‘lgan. Xususan, «Farg‘onaning atoqli jadidlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o‘z siyosiy faoliyatini ilk bor shu jamiyatdan boshlagan».

Darhaqiqat, jadidlar moddiy va ma’naviy qiyinchiliklar, g‘oyaviy – siyosiy taziqlarga qaramasdan, yurtni, millatni ma’naviy yuksalishi uchun sidqidildan harakat qildilar. Tarixning murakkab mas’uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganlari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik ta’limotining mazmun-mohiyati milliy rivojlanish falsafasiga qaratilgan. Bunday rivojlanish, eng avvalo mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan xalqni jipslashtirish pozitsiyasiga olib borishi mumkin edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Turkistonda tashkil topgan jadidchilik harakati dastlabki davrida xalqni ma’rifatli va madaniyatli qilish maqsadi bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy sharoit ko‘proq siyosiy kurash tomon burib yubordi. Sh. Turdiyev fikricha: «Jadidchilikning keyingi bosqichlari yangicha ko‘rinish ola boshladi. Ma’lumki, jadidchilikdagi vujudga kelgan siyosiy g‘oyaviy tafovutlar mahalliy yoshlarning Germaniya va Turkiya kabi davlatlarga borib o‘qib kelishi natijasida o‘zgardi». Bu davrda yashagan Ismoil Gaspiralibey chor Rossiyasining bunday siyosatiga qarshi teng huquqlilik siyosatini targ‘ib qildi va quyidagi talabni qildi: «Muhtaram rus vatandoshlar, bizga bilim, yorug‘lik kerak. Bizning talabimizni jiddiy qabul qiling: bizga yorug‘lik va bilim bering. Buning uchun ona tilimizda o‘qish va yozishni o‘rganishga ruxsat kerak». Keyingi davrga kelib, jadidchilik harakatida bo‘linish sodir bo‘la boshladi. Bu eski tarzdagi jadidlar va yangicha ko‘rinishdagi ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqqan jadidlarga ajralganligini aytish zarur. Og‘ir ijtimoiy hayot sharoitida turli yo‘llar bilan ijtimoiy-siyosiy kurash orqali adolat uchun astoydil kurash olib borish ularning asosiy maqsadiga aylangan. Xususan, jadidlar diniy va milliy bag‘rikenglikni targ‘ib qildilar va uni hayotda amalga oshirishga intildilar. Jadidlarning dunyoqarashiga muhim ta’sir etgan g‘oyaviy falsafiy ta’limotlar genezisiga nazar soladigan bo‘lsak, uni anchagina qadimiy davrlarga borib yetishi va keyinchalik evolyutsiyaga yuz tutib, turli manbalarda o‘z ifodasini topganligiga guvoh bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Исакбоев А. Туркистон ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатарварларининг фаолияти (XIX аср охири - XX аср бoshлари): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган. – Наманган: 2008. – Б. 22.
2. Dnevnik generala A.N.Kuropatkina. 1917 god // Istoricheskij arhiv. 1992. №1. – S.40.
3. Ismoil Gasprinskiy. Bog‘chasaroydan go‘ndarilan maktub // Ziyoi Kafkaziya, 1879, 9 noyabr.
4. Маждий Х. Туркистон босқини. – Тошкент: Нур, 1992, – Б.19.
5. Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане. – Ташкент, 2000. – С. 84.
6. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азийий. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 184.
7. Махмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири. Фалс. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент: 1996. – Б. 10.